



“Tasdiqlayman”

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor:

A.S.Soleev

30.08.2021 –yil

60812000 – ISSIQXONA XO'JALIGINI TASHKIL ETISH VA YURITISH TA'LIM YO'NALISHINING FANLAR KATALOGI

№	Fanning kodi	Fanning nomi	Fanning qisqacha tavsifi	Kredit miqdori	Semestr	Professor-o'qituvchilar: F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi
Majburiy fanlar						
1.01	MTM1104	Matematika	Matematika fani talabalarda mantiqiy, algoritmik, abstract fikrlash, matematik tafakkurni shakllantirish, nazariy bilimlarini berish, tegishli tushunchalar, tasdiqlar, matematikaga xos bo'lgan isbotlash usullarini o'rgatishdan iborat	4	1	Sh.Latipov, G.Mo'minova, M.Pardaboyev, D.Latipova
1.02	FM1104	Fizika	Talabalarga fizikaning asosiy qonun-qoidalari, hamda nazariy va laboratoriya ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan fizik tushunchalar bilan tanishtirishdan, yangiliklarni mustaqil o'rganib, uning tadbirlarini o'zlashtira olishga o'rgatishdan, talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishdan, ijodiy izlanishlarga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning istiqbollarini fizikaviy tushunchalar yordamida bayon qila olishga o'rgatish, hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	4	1	Jo'rayev Y., Semyonov D.I., Ismailov F.R., Shoimov M.T., Sabirov L.M.
1.03	KM1106	Kimyo	Kimyo fani talabalarga kimyoviy elementlar davriy sistemasi, atom tuzilishi, kimyoviy bog'lanish, moddalarning tuzilishi, eritmalar, kimyoviy kinetika va kimyoviy muvozanat, oksidlanish - qaytarilish reaksiyalari, organik moddalarning asosiy sinflarining xossalari, kimyoviy moddalarni tahlil qilish usullari, kimyoviy termodinamika asoslari, fazalararo muvozanat, dispers sistemalar va sirt hodisalarini hamda qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, ularning o'sishini, tartibiga soluvchi moddalarni o'rgatishdan iborat.	6	1	G.M. Abilkosimova. Qurbonova.D.A
1.04	BM2204	Biologiya	Biologiya fani 60812000 – Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishiga majburiy fan sifatida o'quv rejasiga kiritilgan. Mazkur fanning o'quv va ishchi o'quv dasturlarida berilgan ma'ruza, amaliyot va mustaqil ta'lim mavzulari tirik organizmlarning xilma-xilligi, tiriklikning tuzilish darajalari va asosiy xossalari, barcha tirik organizmlarning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari, seleksiya hamda biologiyaning zamonaviy muammolari va	4	3	b.f.f.d (PhD), ass. Narzullayev S.B. ass. Mirzayev O'N. ass. Narzullayev S.B.

			istiqbollari, shuningdek biologiyaning inson va qishloq xo'jaligida tutgan o'rni to'g'risidagi keng qamrovli fundamental bilimlarni o'z ichiga oladi. Talabalar mazkur dasturni to'la o'zlashtirishlari natijasida mutaxassislik va ixtisoslik fanlarini chuqur o'zlashtirishlari uchun mustahkam asos, bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.			
1.05	BO'FM1213	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	Botanika fani o'simliklarning tuzilishi, morfologiyasini o'rgansa, o'simliklar fiziologiyasi o'simlik tanasidagi fiziologik jarayonlar va murakkab qonuniyatlarni o'rgatuvchi fan bo'lib, bunda fiziologik jarayonlarda fotosintez, nafas olish, suv rejimi, mineral oziqlanish, o'sish va rivojlanish hamda chidamlilikni o'rganadi. Bu muhim jarayonlar o'simliklarda boradi.	13	1,2	dots. Jo'rayeva Z.J. qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi. dots. Axmedov A.Q
1.06	O'TM1102	O'zbekistonning eng yangi tarixi	Milliy tarix, milliy g'urur va iftixor manbai hisoblanishini yosh avlod ongiga singdirish, ularda tarixiy xotira, tarixiy tafakkur ko'nikmasini tarbiyalash milliy g'oya va yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish, ularni o'z xalqi va Vataniga sadoqat, amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining ongli faol ishtirokchisi bo'lish ruhida fikrlash va yashashga o'rgatishdan iborat.	2	2	Xaydarov D., Akboyeva Z.
1.07	FM3106	Falsafa	Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish, xalqimiz ma'naviy me'rosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi.	6	5	Tursunova O., Tursunov L.
1.08	O'TM1106	O'zbek (rus) tili	Fanni o'rganishdan maqsad talabalarning amalga oshirilayotgan ta'lim dasturining profilini hisobga olgan holda rus tili haqidagi bilimlar tizimini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratishdir.	6	1,2	Sh.G.Temirova, N.N.Ochilova
1.09	XTM1108	Xorijiy til	O'rganilayotgan chet tilini kommunikativ, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, kasbiy, umummadaniy kompetentlikni integrallashgan yondashuv asosida o'qitishdan iborat. Talabalarni chet tilini faol egallashga o'rgatish, ya'ni dastur asosida berilgan mavzular bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini chet tilida bayon eta olish hamda shu tilda bildirilgan fikrlarni anglashdan iborat	8	1,2,3,4	Sobirova Z., Utayev Sh., Toxirova S., Nizomiddinova N., Yuldoshev M.
1.10	O'QM1101	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning yangi alifbo imlo qoidalari, davlat tilida ish yuritish va mutaxassisligiga oid terminlarni bilishining ilmiy – nazariy asoslarini, hamda ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llay olishni, ilmiy va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.	1	2	Anorqulova O., Xasanov A.
1.11	JTM1104	Jismoniy tarbiya va sport	Fanni (sport tirini) o'qitishdan maqsad: talabalarda sport turlarining mashq elementlari, sport o'yinlari, basketbol sport turida hujum va himoya taktikasi va texnikasi bilan tanishtirish, o'yinlarda qo'llanadigan turli usullarni	4	2	O.K.Raupov, N.I.Isayev

			o'rgatishni takomillashtirish, fintlar bilan amaliy tanishtirish, hakamlik qilish malakalarini shakllantirish va oshirish, musobaqalar o'tkazish usullarini va nizomlarini tuzishga o'rgatish, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va barkmol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, oshirish hamda takomillashtirishdan iboratdir.			
1.12	QXMAM 1207	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish	Qishloq xo'jaligida texnologik jarayonlarni bajarishda qo'llaniladigan traktorlar, kombaynlar va qishloq xo'jalik mashinalarining tuzilishini, ishlashi va agrotexnik talablar bo'yicha ishga tayyorlash jarayonini o'rganish, ulardan texnologik jarayonlarni bajarishda samarali foydalanishni tashkil etishni bo'lajak bakalavrlarga o'rgatishda fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqan holda inovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy-axborot kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish.	7	1	B.U.Nurmihammedov - t.f.n., dotsent, Sh.A.Mamasov - t.f.n., dotsent,
1.13	QXAKTM1207	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	Axborotlarni shakllantirish, saqlash, qayta ishlash, uzatishning asosiy prinsiplarini o'rganish. Zamonaviy dasturlar va informatsion fikrlash hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, turli texnik bilimlarga oid masalalarni shaxsiy kompyuter yordamida hal etish yo'llari va usullarini o'rgatishdan iborat.	7	2	Axatqulov S.A. - DSc., dotsent. Jumayev Z.Z. assistent
1.14	EAMMM 2207	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi	Ekologiya tabiat va jamiyat bir butunligi, ekologik omillar, ekosistemalar, cheklovchi omillar, antropogen omillarning salbiy ta'siri, ekologik tushunchalar beriladi. Yer, suv, havo tozaligini asrash, o'simlik va hayvonlarning yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymaslik, barqaror taraqqiyotga erishish asosiy vazifa ekanligi to'g'risida hozirgi zamon bilimlarini beradi.	7	3	dots.Fayzullayev. B.F ass.Mirzamuradov .O.X
1.15	TUPA2309	Tuproqshunoslik va agrokimyo	Tuproqning kelib chiqishi, tuzilishi, tarkibi, xossalari va uning eng asosiy xususiyati-unumdorligini o'rganish, tuproqlardan oqilona foydalanish va muxofaza qilish, shuningdek, tuproq paydo bo'lish omillari, yerning tuzilish, rivojlanish bosqichlari tuproq ona jinslari, tuproqdan foydalanish, tuproqning unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish yo'llarini o'rgatish, o'z ichiga oladi xamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish, tuproqlarni muxofaza qilish tadbirlarini o'rganish. Respublikamiz sharoitida qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan mineral va mahalliy o'g'itlardan to'g'ri foydalanib, ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni barcha usullarini o'rgatishni o'ziga maqsad qilib olgan. Talabalar sanoatda ishlab chiqariladigan mineral o'g'itlarni olinishi, turlari shakllarini turli tuproq-iqlim sharoitda qo'llaganda tuproq unumdorligini oshirishdagi ta'sirini o'rganishadi.	9	3,4	Sh.T.Xoliqulov q-x.f.d. professor. / M.A.Hayitov q/x.f.n. dost
1.16	DEHM2309	Dehqonchilik	Dehqonchilikning rivojlanish tarixi, dehqonchilik qonunlari, tuproq unumdorligi turlari va uni oshirish tadbirlari, tuproqqa turli xil ishlov berish turlari, ekinlarni ekish usullari, dehqonchilik tizimlari, almashlab ekish turlarini o'rganadi.	9	3,4	Abdurahimov M.K. q-x.f.d.professor
1.17	METM2306	Melioratsiya va yer	Talabalarga yerning tabiiy noqulay sharoitlarini (suv, havo, oziqa, issiqlik)	6	4	Bobobekov I.N.

		tuzish	tubdan yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirib borish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligida yer turlari tarkibi, joylashuvi xamda ichki maydonlarini tuzishni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.			q-x.f.n. dotsent
1.18	QXMBM3306	Qishloq xo'jalik mahsulotlari biokimyosi	Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga qishloq xo'jalik ekinlari va hayvonlari mahsulotlarini biokimyoviy tarkibi, ularni qayta ishlash hamda saqlash davridagi biokimyoviy jarayonlarning borishi, asosiy moddalarning o'zgarishi haqida bilim va zamonaviy tushunchalarni shakllantirish yo'llari va ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	6	5	B.M. Bozorov, M.S.Kuziev -PhD
1.19	AGBTM 3306	Agrobiotexnologiya	Mikroorganizmlarning xilma xilligi, ularning tabiatda tarqalishi, foydali va zarrali tomonlari ulardan sanoat va qishloq xo'jaligida foydalanish usullarini o'rgatish. uglerod, azot, fosforni tabiatda aylanishida mikroorganizmlarning roli, mikroorganizmlarni o'stirish usullari, bijg'itish jarayonlari, molekulyar bio- muhandislik asoslari, gen muhandisligi fermentlarni aniqlash, tuproq biotexnologiyasi, o'simlikshunoslikda gen muhandisligi, genni aniqlash va klonlash, o'simlik xo'jayralarini transformatsiya qilish usullarini organadi.	6	6	Ortikov T.K. b.f.n. dotsent
1.20	QMSQITM 4308	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar qishloq xo'jaligi ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi fanini o'zlashtirish davomida fanni rivojlanish tarixini, hamda ilmiy izlanishlar olib borish yo'llarini izlash, ularni saqlash holati, sharoitlari va dastlabki qayta ishlashni tashkil etish sohalarida yangi yo'nalishlarni belgilab berdi.	8	7,8	A.Raximov - PhD
1.21	QXIM3204	Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti	Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini aniqlash hamda tahlil qilish, tarmoqda oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mavjud resurslardan samarali foydalanish, optimal tarmoq tuzilmasini shakllantirish bo'yicha talabalarga umumlashtirilgan nazariy metodologik, amaliy bilim va ko'nikmalarni ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	4	5	Abdusaidov A.
1.22	BHSTM 3204	Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish	Ushbu fan buxgalteriya hisobining mohiyati, predmeti, metodi, buxgalteriya balansi, schotlari va ikki yoqlama yozuv, buxgalteriya hisobini tashkil qilish, uzoq muddatli va joriy aktivlarni hisobga olish, xususiy kapital hisobi, majburiyatlarni hisobga olish, moliyaviy natijalar hisobi, moliyaviy hisobot, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, soliqlar va majburiy to'lovlar tizimi, qishloq xo'jalik korxonalarida to'laydigan soliqlar kabi masalalarni qamrab oladi. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, soliqlar va soliqqa tortish mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bilimlar bilan qurollantiradi	4	6	Raxmonov T., Karjabova X., Mardonova A.
1.23	HFXM2204	Hayot faoliyati xavfsizligi	Fan o'qitilishining maqsadi – bo'lajak mutaxassislariga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini,	4	4	Qobilov E.Q.

			oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen, ekologik va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalaniShga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.			
1.24	O'ShM2405	O'simlikshunoslik	Talabalarga xorij tajribasi asosida o'simlikshunoslikning ilmiy asoslarini; rivojlanish tarixini; madaniy ekinlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va ularni rayonlashtirish; biologik xususiyatlarini; yetishtirish va yig'ib-terib olish usullarini; istiqbolli turlari va navlarini; agrotexnikasi va ekish texnologiyasini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	5	3	Abduraximov M.K., q/x.f.d.prof
1.25	IEUKM2406	Issiqxona ekinlari urug'chiligi va ko'chatchiligi	Respublikamiz iqlim sharoitida issiqxonalarni tashkil etish va ularni yuritish, yil davomida aholini qishloq ho'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, xususan issiqxona maydonidan yil davomida oqilona foydalanish, ikki yoki uch martagacha hosil olish, issiqxona sharoitiga mos nav va duragaylarning urug'chiligini yuritish, hozirga dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelayotgan kam tarqalgan va noan'anaviy sabzavot ekinlari, shu jumladan sitrus va boshqa mevali ekin turlari ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha dastlabki bilimlarni berishdan iborat	6	4	I.T.Ergashev q/x.f.d. prof
1.26	IXTEBM 3408	Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish	Zamonaviy issiqxonalarni tashkil etish va uni yuritish, ularda tannarxi arzon, eksportbob sabzavotlarni yetishtirishni tashkil etish va bu sohadagi yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan.	8	5,6	B.X.Xolmirzayev q/x.f.n. dots
1.27	HJITM 3406	Himoyalangan joy inshootlarining turlari	Himoyalangan joy inshootlarining hozirgi ahvoli, rivojlanishi, himoyalangan yer inshootlarini loyihalash va ko'rishda erishilgan yutuqlar, mikroiklim sharoitlarini sozlashdagi yangi uskuna va jixozlar, o'simliklarni oziqlantirish xususiyatlari, ko'chat va sabzavotlarni yetishtirishdagi yangi texnologiyalar hamda himoyalangan yer joy inshootlaridan unumli foydalanishga qaratish	6	6	I.T.Ergashev q/x.f.d. prof
1.28	HESM 3408	Himoyalangan yer sabzavotchiligi	Himoyalangan yer sabzavotchiligining hozirgi ahvoli, rivojpanishi, himoyalangan yer inshootlarini loyihalash va ko'rishda erishilgan yutuqlar, mikroiklim sharoitlarini sozlashdagi yangi uskuna va jihazlar, o'simliklarni oziqlantirish xususiyatlari, ko'chat va sabzavotlarni yetishtirishdagi yangi texnologiyalar hamda himoyalangan yerlardan unumli foydalanishga qaratish	8	5,6	D.S.Normurodov q/x.f.d. dots
1.29	MEVM4408	Mevachilik	Meva-sabzavot ekinlarini yetishtirish bo'yicha zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo'yicha bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish hamda egallangan bilimlar bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir	8	7,8	S.T.Sanayev q/x.f.d. dots
1.30	SABM4410	Sabzavotchilik va polizchilik	Sabzavot va poliz ekinlarini kelib chiqish makonlari, morfo-biologik xususiyatlari, navlari, ekish muddatlari va usullari hamda yetishtirish texnologiyasini o'rgatish hamda ularni amalda tadbiiq etish ko'nikmasini hosil qilishdir	10	7,8	S.T.Sanayev q/x.f.d. dots

1.31	IEZHQM4404	Issiqxona ekinlarini zararkunandalardan himoya qilish	Yopiq maydon ekinlarini zararkunandalar va begona o'tlardan himoyalashni zamonaviy usullari, texnikasi va texnologiyasini o'rganish	4	7	S.I.Axmedov
1.32	IZKHQM4404	Issiqxona ekinlarini kassaliklardan himoya qilish	Yopiq maydon ekinlarini kasalliklardan himoyalashni zamonaviy usullari, texnikasi va texnologiyasini o'rganish	4	8	I.F.Mamasoliyev
1.33	IMQDIBM 4404	Issiqxona mahsulotlarini qadoqlash va dastlabki ishlov berish	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kayta ishlash korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarini qadoqlash materiallarining turlarni ularni mahsulotlarga ta'siri, texnologik liniyalar va jixozlari, mashina va apparatlar hakida ma'lumot berish, ularni hisob-kitoblarini o'rganish	4	8	B.X.Xolmirzayev q/x.f.n. dots
Tanlov fanlari						
2.01	TFE43002	Himoyalangan yerlarda noan'anaviy sabzavot ekinlari etishtirishning zamonaviy texnologiyalari // Issiqxonalarda sitrus va subtropik ekinlar o'stirish	Himoyalangan erlarda noan'anaviy sabzavot ekinlari etishtirishning zamonaviy texnologiyalari, usullari, uslublari, zamonaviy noan'anaviy sabzavot, meva va shampinon etishtiruvchi kombinatlar, komplekslar, chet davlatlarda noan'anaviy sabzavot, meva va shampinon ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalarni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiiq etish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir	2	3	B.X.Xolmirzayev q/x.f.n. dots
2.02	TFE43002	Issiqxonalarda qulupnay yetishtirish texnologiyasi // Issiqxonalarda Shampinon-qo'ziqorin (Agaricus bisporus Lange) yetishtirishning zamonaviy texnologiyalari	Himoyalangan yer inshootlarini loyihalash va qurishda erishilgan yutuqlar, mikroiklim sharoitlarini sozlashdagi yangi uskuna va jihazlar, o'simliklarni oziqlantirish xususiyatlari, qulupnay ko'chati va mahsulot etishtirishdagi yangi texnologiyalar, istiqbolli ekin almashinuvi hamda himoyalangan yerlardan unumli foydalanishga qaratish	2	5	A.R.Raximov - PhD
2.03	TFE43002	Takroriy sabzavot ekinlarni etishtirish texnologiyasi // To'qsonbosti usulida sabzavot ekinlarni etishtirish texnologiyasi	Takroriy sabzavot ekinlarni etishtirish texnologiyasi va istiqbollari, sabzavot ekinlarining biologiyasi, sabzavot ekinlaridan sifatli hamda arzon hosil yetishtirish texnologiyasi bilan tanishtirish hamda ularni amaliyotda tadbiiq etish ko'nikmasini xosil qilishdan iborat. Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish	2	6	A.R.Raximov - PhD
2.04	TFE43004	Sitrus va tropik	Sitrus va subtropik ekinlari etishtirishning zamonaviy texnologiyalari, usullari,	4	7	A.R.Raximov -

		ekinlar yetishtirish texnologiyasi // Subtropik ekinlar yetishtirish texnologiyasi	uslublari, zamonaviy sitrus va subtropik ekinlari etishtiruvchi kombinatlar, komplekslar, chet davlatlarda sitrus va subtropik mevalarni ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalarni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini xosil qilishdan iborat			PhD
2.05	TFE43004	Issiqxonalarda texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish // Issiqxona xo'jaligida ekologik toza mahsulot yetishtirish	Issiqxonalarda texnologik jarayonlarni bajarishda qo'llaniladigan energetik vositalar, ishchi hamda maxsus mashina va qurollar, statsionar texnologik uskunalar, transport vositalarining tuzilishi, ishlashi va ularni agrotexnik talablar bo'yicha ishga tayyorlash jarayonini o'rganish, ulardan texnologik jarayonlarni bajarishda samarali foydalanishni tashkil etishni bo'lajak bakalavrlarga o'rgatishda fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy-axborot kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish. / Fanning ahamiyati, soxaning kelib chiqish tarixi, xozirgi ahvoli va o'z navbatida sitrus meva ekinlarini morfologik tuzilishi, o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi, ularning turi va navlarining Respublika tumanlarida joylashtirish hamda hosilini ko'paytirish yo'llarini o'rgatish, ilmiy asosda agrotexnik tadbirlar qo'llash va jamiyatimiz islohotida negizi bo'lmish bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish istiqbollari qaratish	4	7	B.U.Nurmihammedov - t.f.n., dotsent, Sh.A.Mamasov - t.f.n., dotsent / A.R.Raximov
2.06	TFE43002	Himoyalangan yerlarda meva ko'chatlarni in vitro usulida yetishtirish // Zamonaviy issiqxonalarda gidroponika usulida sabzavot ekinlarini yetishtirish	Himoyalangan yerlarda meva ko'chatlarni in vitro usulida yetishtirish xususiyatlari, ko'chat va sabzavotlarni etishtirishdagi yangi texnologiyalar, istiqbolli ekin almashinuvi hamda himoyalangan erlardan unumli foydalanishga qaratish	2	8	D.S.Normurodov q/x.f.d. dots

"Kelishildi"

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

M.O'.



Fakultet dekani:

T.F.Rajabov

M.O'.

